



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 612 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Einora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
Adjiev Nayrullo Nazrulloevich	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi	
Talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari	135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
Djaparova Gulnoza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
Do'stov Davron Zulhaydarovich	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
Ergash Shonazarovich Khasanov	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
Gulbahor Xamidova	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
Halima Shukurova Sunatullayevna	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdulkodirkhoja qizi	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
Mustafoev Sherali	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
Numonova Dildor Umurzoqovna	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
Qarshiboyev Asliddin	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
Suvanova Kamola Raimqul qizi	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli.....	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash.....	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari.....	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyrov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar.....	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers.....	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии.....	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli.....	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'liqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi.....	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty.....	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	



Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	322
Ismoilova Surmaxon Amonovna, Yusupova Mohinur	
Qoraqalpoqlarning dehqonchilik marosimlari	326
Orinboyeva Go'zal Polatovna	
The Complexity of Training Teaching Staff for Work in Public Schools Organized in Medical Stations in Uzbekistan.....	330
Inogamova Dilfuza Rakhmatullaevna	
Boshlang'ich ta'lim texnologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	335
Jabbarova Zuhra Omondullayevna	
Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni nutqini shakllantirish metodikasi	338
Z. N. Mamarajabova	
5–7-sinf qizlarida raqamli texnologiyalar ta'sirida tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari.....	341
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar ..	345
Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna	
PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	349
Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna	
Bo'lajak surdotarjimonlar uchun faoliyat turlarini tanlashda ko'maklashish	354
Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna	
Mustaqil ta'limni tashkillashtirishda tarjimadan foydalanish jarayonlari	357
Erkayev Elmirza Temirovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'rni.....	361
Jumayeva Muxlisa Shokir qizi	
Tasks, Exercises, and Activities in the English Classroom: Differences, Similarities, and Effective Use	366
Qodirov Olim Odilovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari	372
Safarova Mohichehra Xonzafarovna	
Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalari.....	376
Saidova Dilnoza Maripovna	
O'zbekiston va Yaponiya dzyudo trenerlarining mashg'ulot jarayonlarini qiyosiy tahlili.....	380
Sharipov Xabibullo Abduqahhorovich	
"Kompyuter lingvistikasi"ning rivojlanish tendensiyasi.....	386
Xusanboyeva Muxlisa Ikrojon qizi	
Педагогические технологии стратегического развития взаимного сотрудничества организаций дошкольного образования и родителей.....	392
Тухлиев Муслимбек Шерзод угли	
Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish muammolari	397
Dilbar Nurkeldiyeva	
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasalarida tarbiyaning o'rni.....	401
Laylo Sharopovna Nurmuxamedova	
Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muloqotning shakllanish xususiyatlari	405
Shahnoza Amirsaidova	
Aqli zaif bolalarga ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirishning ahamiyati.....	409
Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjonovna	
Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari	412
Abdullayeva Komila Tursunovna	
Didaktik o'yinlar vositasida 2-sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	416
Askarova Gulayim Arislan qizi	
Yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarda tezkorlikni samarali va jadal rivojlantirishni ilmiy asoslash.....	420
Avazov Shukrullo Ibatovich, Nuraliyeva O'g'iloy Shomurotovna, Mustafayev Ismoil Nuralio'g'li	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati.....	425
Axmedova Mastura Jamoliddinovna	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	430
Azizova Dilnora	

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy – deontologik kompetensiyalarni shakllanishida tibbiy amaliyotning ahamiyati.....	435
Babadjanova Gulchexra Baxtiyarovna	
Bolaning aqliy rivojlanishini yoritadigan ko'rsatkichlar	440
Bozorboyev Javlon Davlatali o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari.....	445
Daminova Maftuna Asqarali qizi	
Kreativ pedagogika fani va mantiqiy fikrlash kompetentligi orasidagi bog'liqlik.....	449
Diyora Egamberdiyeva	
Oilani mustahkamlovchi va ajralishiga olib keluvchi omillar	454
Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li	
Quality Management as a Functional and Attributive Characteristic of Modern Management.....	458
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldievna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jarayonlar	464
Mamedova Maxfuza Erkinovna	
Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda yuridik ta'limning roli: tahlil va takliflar	470
Mansurova Zilola Akromxonovna	
Pedagogik ta'limda klaster yondashuvi: O'zbekiston va jahon tajribasi	474
Nafisa Tokhirova Dilshod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari: zamonaviy yondashuvlar va innovatsion imkoniyatlarning integratsiyasi asosida shakllanish jarayoni.....	478
Norqulov Lutfullo Mamarajabovich	
Montessori metodikasi va undagi bolalar sensomotorikasini rivojlantirishga doir tajribalar tahlili	484
Parmonova Laylo Ilxomovna	
Molekulyar fizikani modellashtirish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	488
Q. U. Tog'ayeva	
Milliy tarbiyada raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	493
Qo'shnazarova Nozima Maxmutjon qizi	
Learning Intercultural Communication Through Social Media: the Approach of Modern Students	498
Raxmonqulova Feruza Akmal qizi	
Aqliy rivojlanishda muammolari bor maktab o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslar.....	502
Shodiyeva Navbaxor Xabibulla qizi	
Logopedning kasbiy faoliyatida deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati	506
Temurova Gulchexra Xudoyqulovna, Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi	
STEAM ta'limida lego konstruktlorlarining o'rni va ahamiyati.....	511
Toshpulatova Farida Radjabovna	
Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola va ularning ota-onalari bilan bog'liq muammolar.....	514
Toshpulova Nodira Sultonmurod qizi	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllari.....	518
Turdiqulova Luiza Zayniddinovna	
O'zbekistonda ESG tamoyillarining ta'limga integratsiyasi: yutuqlar, muammolar va istiqbollari	522
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish	526
Xamidova Muyassar Polsaidovna	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy didaktik prinsiplari.....	530
Yuldashev Shukrullo	
Комплексная методика развития и обучения юных футболистов	536
Ортиков Умиджон Худойбердиевич	
Особенности деятельности детей с нарушением зрения	544
Юсупова Назира	
Integration of Music and Language: Creative Approaches to Teaching English to Music Students	548
Akbarova Moxichexra	



Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi.....	553
<i>Alimardonova Malika Botir qizi</i>	
Yosh kurashchilarni jismoniy va aqliy rivojlantirishda basketbol o'yinining ahamiyati	560
<i>Haqnazarov Qurbon Qo'shayevich</i>	
Voleybol murabbiylarining innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari	566
<i>Haqqulov Akbar Abdiraupovich</i>	
Sociolinguistic Competence and Intercultural Communicative Competence: Intertwining Concepts and Practical Implications	571
<i>Kuchmurodova Gulnora Khatamovna</i>	
Ilk qadam davlat dasturida steam ta'lim elementlaridan foydalanish imkoniyati	575
<i>Nazarova Aziza Sohib qizi</i>	
Kasbiy rivojlanish jarayonida rahbar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	579
<i>Roziqova Nazokat Alisher qizi</i>	
Deontologik yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati	583
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining metodik salohiyatini oshirish yo'llari.....	586
<i>Xashimova Aziza Alisherovna</i>	
Природа и механизм действия биологических иммуностимуляторов на организм животных	590
<i>Койилова Мехринисо Джураевна</i>	
Badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish mezonlari	594
<i>Jamalova Kamola Shahobiddinovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish asosida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish	600
<i>Musurmonova Shaxnoza Dilshod qizi</i>	
Futbolchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	606
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	

OILANI MUSTAHKAMLOVCHI VA AJRALISHIGA OLIB KELUVCHI OMILLAR

Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-3044-625X

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila institutining jamiyatdagi o'rni, oilani mustahkamlovchi omillar hamda uning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy o'zbek oilalarida uchrayotgan muammolar, ularning ijtimoiy-psixologik ildizlari va ajralishlarning oldini olish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, mustahkamlik, ajralish, psixologik muhit, mehr-oqibat, ijtimoiy omillar, ma'naviy qadriyatlar, nikoh.

Abstract: This article analyzes the role of the family institution in society, factors that strengthen the family, and the causes negatively affecting its stability. It also highlights problems faced by modern Uzbek families, their socio-psychological roots, and ways to prevent divorces.

Key words: Family, stability, divorce, psychological environment, care, social factors, moral values, marriage.

Аннотация: В данной статье проанализированы место института семьи в обществе, факторы, укрепляющие семью, а также причины, оказывающие отрицательное влияние на её устойчивость. Кроме того, освещены проблемы, с которыми сталкиваются современные узбекские семьи, их социально-психологические корни и пути предотвращения разводов.

Ключевые слова: Семья, устойчивость, развод, психологическая среда, забота, социальные факторы, духовные ценности, брак.

KIRISH

Bugungi kunda amaliyotda yoshlar o'rtasida ajralishlar ko'pligi va aksariyat yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasliklari kuzatilmoqda. Aholi o'rtasida qadriyatli yondashuvlarni targ'ib qilish orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni bartaraf etish va kamaytirishda pedagogik tadqiqotlarning o'rni katta. Xususan, zaif eshituvchi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi sog'lom yoshlarda uchrayotgan muammolardan ham murakkabdir. Shu sababli, bu muammoning mohiyati va tuzilishini tadqiq qilishda oilaning mustahkamligi va ajralishiga olib kelayotgan omillarni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Aynan shu omillarni maktab ta'limi davrida inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ta'sirchanligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, ijtimoiy muhit oilada bola tarbiyasiga doimiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muhitning ba'zilar oilada tarbiya funksiyasini sog'lomlashtirsa, ba'zilar esa oila a'zolari va yaqinlari o'rtasidagi salbiy munosabatlarga asoslangan turli muammolarni yuzaga keltiradi va muhitning beqarorlashishiga ta'sir qiladi.

Oilaning mustahkamligi va barqaror sog'lomligiga ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Oila a'zolarining fikrlash tarzi.** Mazkur omil oilaning psixologik hayot tarzini namoyon qiladi. Shuningdek, oiladagi shaxslarning dunyoqarashi bilan bog'liq omil o'zining alohida xususiyatlariga ega.
2. **Oila qadriyatlari va o'rnatilgan qoidalar.** Oilaning barcha qadriyatlari, o'rnatilgan qoidalari va talablari hamda motivlari uning hayoti uchun zarur real imkoniyatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Oilada insonlarning fikrlash tarzi asosan hayot tarzi bilan aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan oila a'zolarining maqsadlari ularning ehtiyojlariga moslashadi, o'rnatilgan qoidalar esa qadriyatlar asosida oilaning har bir a'zosining ruhiy holatiga ta'sir qiladi.



3. **Iqtisodiy va ish faoliyati bilan bog'liq omillar.** Oilada er va xotinning ish faoliyatidagi natijalar turli o'zgarishlarga psixologik tayyor bo'lishni talab qiladi. Ya'ni oiladagi muhit uning iqtisodiy holatiga bog'liq ravishda rivojlanadi.
4. **Muloqot madaniyati.** Oila a'zolari va ularning yaqinlari o'rtasidagi muloqot madaniyati oilaning ijtimoiy-psixologik hayot tarzini yaqqol namoyon etadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - Muloqotning shaxsiy zarurat ekanligi tufayli shaxslararo aloqalarni va oilaning o'z manfaatlarini namoyon etadi;
 - Oila a'zolari o'rtasida norasmiy munosabatlar, empatiya va shaxsiy-refleksiv mexanizmlarni shakllantiradi;
 - Ota-ona va farzand o'rtasidagi real munosabatlarning psixologik tavsifini yuzaga chiqaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila istiqomat qiladigan hudud va millat hamda xalqning an'analari

Ko'p millatli davlatlarda oilalarning turli millat va xalq vakillarining qadriyatlarini, madaniyatini, an'analarini, xulq-atvori, tili va shevalari bilan uyg'unlashishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarda o'z millatining o'ziga xos xususiyatlariga xos sifatlarni va bilimlarni shakllantirishga mas'uldirlar. Buning uchun ota-onalarda mazkur bilimlar mavjud bo'lishi lozim. Demak, zaif eshituvchi o'quvchilarga zarur bilimlarni berish masalasi metodik jihatdan hal etilishni taqozo etadi.

Milliy qadriyatlarning mohiyatini ochib beruvchi mashg'ulotlar va turli tadbirlarni olib borish orqali bo'lajak oila quruvchilarni boshqa millat vakillari bilan do'stona munosabatga tayyorlashga erishish mumkin.

Har bir oilaning o'ziga xos an'analari. O'zini tutish odobi va uyida o'rnatilgan qoidalarga rioya etish oilaning an'anaviy tartibida namoyon bo'ladi. Bunda oilada yo'lga qo'yilgan tartibning mohiyati va unga oila a'zolarining munosabati muhimdir.

A.M. Rogovanning fikrlariga ko'ra, "oilaviy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni 3 ta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Oila rivojlanishining umumjahon tendensiyalari;
2. Hudud iqtisodiy islohotlari sharoitlariga xos bo'lgan omillar;
3. Turli yoshlar guruhlariga xos bo'lgan omillar."

Mazkur omillarni birma-bir ko'rib chiqish muhim, chunki ular asosida zaif eshituvchi bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish mumkin.

Har qanday oila muayyan davlat sharoitida shakllanadi. Ushbu davlatning rivojlanishida jahonning ilg'or tendensiyalari muhim o'rin tutadi. Xuddi shunday, oila institutini rivojlantirishda ham bu omil o'z ta'siriga ega. Bugungi kundagi jahon tendensiyalariga mustaqillikning ortishi, oilaning manfaatlariga nisbatan shaxsiy manfaatlarining ustunligi kabi holatlar misol bo'la oladi. Axborot vositalari orqali turli holatlarni ko'rgan va eshitgan yoshlarda qadriyatlar va oilaviy munosabatlarga nisbatan chetga chiqishlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zaif eshituvchi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashda mazkur masala ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, oylik ish haqi, uy-joy va mulklarga egaligi kabi holatlar oilaning mustahkamligiga albatta ta'sir qiladi. Bunda oilada erkak kishining iqtisodiy masalalarni hal etishdagi roli ayniqsa muhimdir. Zaif eshituvchi bola qanchalik o'zining jinsiga bog'liq ijtimoiy rollarni tushunsa va ularga intilsa, uning kelajakdagi oilasini mustahkam qurish imkoniyati kengayadi. Demak, maktab-internatlarda zaif eshituvchi o'quvchilarni ota va ona bo'lishga hamda farzand tarbiyasiga maqsadli tayyorlash bo'yicha pedagogik yondashuvlarni joriy etish lozim.

N.N. Uvarova er va xotin o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro refleksiyani ta'minlovchi omillarni quyidagicha ta'kidlaydi:

1. Turmush o'rtoqlarning qarashlari, o'zi va turmush o'rtoqi hamda ijtimoiy dunyo to'g'risidagi fikrlaridagi o'xshashliklar;
2. Har bir turmush o'rtoq tomonidan afzal ko'rilgan muloqot, shu jumladan o'zini tutish modelidagi o'xshashliklar;
3. Bir-biriga yaqin bo'lgan umumiy madaniy daraja, ijtimoiy yetilganlik darajasi va turmush o'rtoqlarning qadriyatlar tizimining mos kelishi.



N.V. Xaxina, A.I. Antonov, Z.A. Rasulova, Y.V. Jilsova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda oiladagi tarbiya va muhitning ko'p jihatdan ichki omillar ta'sirida shakllanishi ko'rsatiladi. Olimlar bog'cha, maktab, kollej va boshqa ta'lim muassasalari bilan taqqoslaganda, bola, o'smir va o'spirin shaxsining shakllanishida oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ustuvor deb bilishadi. Bunda ular asosiy omil sifatida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning hissiy hamda ichki xarakterini ochib ko'rsatib o'tishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Oilaning tarbiyaviy imkoniyati” (ba'zi hollarda pedagogik imkoniyat deb ataladi) deganda, aksariyat olimlar bola shaxsining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlovchi sharoit sifatida tavsiflaydilar. Oilaviy tarbiyaning shart-sharoitlarini aniqlab beruvchi oilaviy hayot tarzi har bir a'zosiga ta'sir qiladi. Chunki oilaviy hayotda yuz beruvchi turlicha vaziyatlar bola shaxsida iz qoldirishi tabiiydir.

Oilaning tarbiyalash funksiyasini o'rganishda quyidagi omillar hisobga olinadi: oilaning o'ziga xos xususiyatlari, yashash joyi, uning tarkibi, moddiy ta'minlanganligi, psixologik mikromuhit holati, ota-onaning madaniyati, an'ana va qadriyatlari, katta a'zolarining ta'lim darajasi va boshqa jihatlar. Ammo yuqoridagi omillarning hech biri yakka holda oiladagi tarbiya darajasini aniqlab bera olmaydi; ular birgalikda, yakdil majmua sifatida o'zini namoyon etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Ijtimoiy-madaniy omil

Bolalarning oiladagi tarbiyasiga ota-onaning e'tibor qaratishi bog'liq omildir. Dastlabki kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ota-onalar zaif eshituvchi farzandlari tarbiyasiga ma'suliyatli, beparvo yoki o'rtacha e'tibor bilan yondashishadi. Bunda ota-ona o'z fuqarolik pozitsiyasini anglashi va jamiyat a'zosi sifatida farzandining tarbiyasiga maqsadli mas'uliyat bilan yondashishni ijtimoiy talab sifatida biladi.

Ota-onalar zaif eshituvchi bolaning tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor beradi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim, surdopedagog bilan hamkorlik kabi faoliyatlarni uzviy ta'minlash muhimligini anglaydilar. Bolaning oiladagi farovon sharoitlarda o'sishi uning ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradi va shaxsiy sifatlarining realizatsiyasiga imkon beradi.

Aksincha, oiladagi ziddiyatli muhit, salbiy odatlar va oila a'zolari o'rtasidagi ruhiy bosim, ya'ni yaqinlikning yetishmasligi, zaif eshituvchilikning ijtimoiy salbiy ta'sirlarini kuchaytiradi. Natijada bolaning tarbiyasi va rivojlantirishida buzilishlar yuzaga keladi.

So'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, zaif eshituvchi bolaning oiladagi tarbiyasiga ota-onaning ta'lim darajasi, kasb bilan bandligi va jamiyat bilan muloqoti ta'sir qiladi. Ya'ni oila a'zolarining ta'lim va ishdagi muvaffaqiyatlari oiladagi tarbiyaviy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oilaning pedagogik madaniyati darajasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, zaif eshituvchi bolalarning oilaviy hayotga tayyorligi ota-onalarning pedagogik savodxonligiga bog'liq ekanligi tasdiqlanadi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy omil

Bu omil oilaning mol-mulkka egaligi, ota-onalarning ish bilan bandligi va oilaviy budget masalalarini tushunishi orqali namoyon bo'ladi. Bolalarni tarbiyalash, ularni zamonaviy kasb egalari etib shakllantirishda oilaning iqtisodiy ta'minoti muhim rol o'ynaydi.

Oilada yetarli moddiy ta'minot bolalarning madaniy va boshqa ehtiyojlarini qondirish, nutq va salomatlikni qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha ta'lim olishlari uchun zarur xarajatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Aslida, oilada bolalarni to'laqonli rivojlantirish imkoniyati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Og'ir iqtisodiy sharoitlarda onalar ko'pincha farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor bera olmaydi. Bu esa bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, 3 yoshgacha bo'lgan davrda. Shu bois, ota-onaning zaif eshituvchi bolalar bilan muntazam muloqoti muhimdir. Bu bolalarning dunyoqarashi, mas'uliyat hissi, kasb-hunar qiziqishlarini shakllantiradi.

3. Texnik-gigiyenik omil

Bu omil oilaning tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirish sharoitlari bilan bog'liqdir. Oilaning yashash joyi, saranjonligi, uyning qulay jihozlanganligi, elektr jihozlari xavfsizligi, gigiyena xonalari ozodaligi kabi jihatlar muhim hisoblanadi.

Mazkur omil orqali zaif eshituvchi bolalarga “pokiza uyda baraka va hotirjamlik bo'ladi” degan g'oya tushuntiriladi. Shuningdek, ozodalikning salomatlikka ta'siri ham o'rgatiladi. Zaif eshituvchi bolalar oilalarda pokizalikka o'rgansalar, kelajakda oilaviy hayotning mustahkam bo'lishiga erishish imkoniga ega bo'ladi.



4. Demografik omil

Mazkur omil zaif eshituvchi bolaning tarbiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Oilaning tavsifi: to'liq, to'liq bo'lmagan, onalik, qiyin, oddiy, bir farzandli, ko'p farzandli va boshqa turli shakllar bo'lishi mumkin.

Bola tarbiyasi uchun eng optimal sharoitlar qanday oilada yaratiladi, degan savolga aniq javob yo'q. Masalan, to'liq, iqtisodiy barqaror oilada ham tarbiyaviy muammolar yuzaga kelishi mumkin, aksincha, iqtisodiy ahvoli tang oilada tarbiyali, mehnatkash va ilmga chanqoq bola kamol topishi mumkin. Ammo nasl qoldirish va kelajak avlodni barkamol tarbiyalashga ota va ona mas'ul bo'lgan to'liq oilalar bolaning muvaffaqiyatli tarbiyasining garovi hisoblanadi.

Oila mustahkamligi – jamiyat taraqqiyoti va millat barqarorligining garovidir. Oilani mustahkamlovchi omillarni kuchaytirish va ajralishlarga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish uchun davlat, jamiyat va har bir fuqaroning mas'uliyati zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oila bolalarning tarbiyasi va shaxsiy rivojlanishida asosiy ijtimoiy institut sifatida katta rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zaif eshituvchi bolalarning oilaviy hayotga tayyorligi va ularning shaxsiy rivojlanishi ota-onaning pedagogik savodxonligi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, yashash sharoiti, gigiyenik va demografik omillar bilan bevosita bog'liq.

Ijtimoiy-madaniy omillar ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tibor qaratish darajasini belgilaydi va bolaning shaxsiy sifatleri, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar esa oilaning moddiy imkoniyatlari, ota-onaning ish bilan bandligi va oilaviy budjetni boshqarish darajasi orqali bolalarning madaniy, psixologik va nutqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Texnik-gigiyenik omillar oiladagi yashash sharoiti va gigiyenaga rioya etish orqali bolalarda tartib-intizom va sog'lom turmush tarzini shakllantiradi. Demografik omillar esa oilaning tarkibi, farzandlar soni va ota-ona mas'uliyati orqali tarbiyaning sifatiga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga, oilaning mustahkamligi nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va milliy qadriyatlarning uzluksizligi uchun ham muhimdir. Demak, oilaviy tarbiyaga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda pedagogik va metodik tadbirlar ishlab chiqish, zaif eshituvchi bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash dolzarb va zarur masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova, V. (2019). Oila psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
2. O'zbekiston Respublikasi. (2021). Oila kodeksi. Toshkent.
3. Tojiboyeva, M. (2020). Oila va jamiyat. Toshkent: Fan.
4. UNESCO. (2018). Zamonaviy jamiyatlarda oila va ijtimoiy hamjihatlik. Parij.
5. Sodiqova, X. (2022). Oila: zamonaviy muammolar va ular. Toshkent.
6. Muzaffarova, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish xususiyatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
7. Muzaffarova, X. (2021). Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish masalalari. Scienceweb Academic Papers Collection.
8. Muzaffarova, X. (2021). Horijiy mamlakatlarda aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni. Scienceweb Academic Papers Collection.
9. Muzaffarova, X. (2021). Ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati. Scienceweb Academic Papers Collection.
10. Muzaffarova, X. (2022). Use of therapeutic physical training in speech and movement correction in children with musculoskeletal injuries. Scienceweb Academic Papers Collection.
11. Muzaffarova, X. (2022). [Ma'ruza va maqola linki]. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/380323330>
12. Muzaffarova, X. (2022, 01 iyul). Maxsus maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab olishda differensial yondashuv. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании.
13. Muzaffarova, X. (2021). Ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati. Scienceweb Academic Papers Collection.
14. Muzaffarova, X. (2022). Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni psixomotor rivojlanishga kompleks yondashish xususiyatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.